

XALQ ICHIDA MUOMALA MADANIYATI

Saksonboyeva Mushtariybegim Lochinbek qizi

To'xtasinova Rayhongul Avazbek qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti 1-bosqich talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10404388>

Annotatsiya. So'z-nutq Alloh taoloni insonga bergan ulug' ne'matlaridan biri. So'z bilan odamlar bir-birlariga o'zlarining hohishlari, istaklarini bildiradilar. So'z bilan kishi o'zi haqidagi, narsalar haqidagi haqiqatni bayon qiladi. So'z bilan kishi o'zini roziligini, noroziligini isxor qiladi. So'z bilan kishining aqli-iymoni ko'riladi. So'z bilan ummatlar yuksaladi, yoki fitnaga duchor bo'ladi. So'z bilan insonlar maqtaladi, yoki yomonlanadi. So'z insonlar qalbining tarjimoni. So'z insonni ichki dunyosining ko'zgusi. Gapirayotgan gapiga qarab, u odamni ichki dunyosi qandayligini bilsa bo'ladi. So'z inson ruhiyatini, iqtidori, istedodi talantini ko'zgusi. So'z insoning hosilasi, so'z bilan biz insonlar Robbimizga itoat qilamiz, yoki osiy bo'lamiz. So'z bilan inson boshqa odamlar orasini yo isloh qiladi, yoki buzadi. So'z bilan inson najotga yetadi, yoki abadiy halokatga uchraydi. Musulmon odam so'zlar ekan uni so'zi odamlarni qalbini jamlashi kerak.

Kalit so'zlar: to'g'rilik, samimiylik, bilim, madaniyat, ma'rifat, inson parvarlik, ta'lim-tarbiya.

Kirish. Biz o'zbeklar mentalitetimizda muomala madaniyati ko'p hollarda o'zaro salom-alik qilish, hol-ahvol so'rash oiladagi ahvol bo'yicha axborotlarga qiziqish ko'rsatish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ammo aslida muomala madaniyati bilan belgilanadi. Faqat salam-alik qilgandagina emas, balki hayot tartibida, har kunlik hayot tarzida insonga ko'rsatiladigan hurmatli va e'zozli, samimiy va to'g'ri munosabatni anglatadi.

Ichki ma'daniyatga ega bo'lgan odamgina har turli vaziyatlarda har qanday boshqa insonga nibatan doimiy to'g'ri, samimiy va aniq munosabat ko'rsata oladi. Muloqot madaniyati insondan boshqa insonga nisbatan har doim bir tekis munosabat ko'rsatishni talab etadi. Qarshiningizda turgan odam boymi, kambag'almi, qishloqlikmi yoki shaharlikmi, mansabdormi yoki oddiy o'qituvchimi, bundan qat'iy nazar unga to'g'ri munosabat ko'rsata olish haqiqiy insonparvarlik mezoni bo'lib kelgan. Ammo muloqot madaniyati insondan o'z ustida muntazam ish olib, borishni talab etadi. Muloqot madaniyati o'z - o'zidan vujudga kelib qolmaydi. Hayotda ko'pincha odamlar orasidagi muloqatda ularning rasmiy xushomadgo'y, kibr - havoli munosabatlarini shohidi bo'lamiz. Bazan inson yuqori martabaga erishsa, u o'zini boshqalardan ustunligini ko'rsatish uchun, ko'chilik bilan salom - alik ham qilmay qo'yadi. Asl madaniyatda esa aksincha, insonning qanchalik o'zining yaqinligini ko'rsatish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga muloyimlik, ochiqlik, samimiylik, to'g'rilik va boshqa bir necha tamoyillar ulug'lanadi, va targ'ib qilinadi, yoki qadrlanadi. Muomala madaniyati o'yicha bilimlar ziddiyat ichida tomonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ular o'rtasidagi muloqatni yangitdan bir tizimga tushirish, tomonlarning ya'ni yoshlarning axborot olishlarini yengilashtirish uchun xizmat qiladi. Muomala madaniyatini birovni eshitish va birovga o'z axborotlarini to'g'ri yetkazish qoidalari tartiblaridan iboratdir.

Ma'rifat

Ko'rinishidan tuproqdayin oddiy gohi,

Yerday hokisor, yerdan uzilmas nigohi.

Sherday na'ra tortgan ammo kerak chog'i,

Ma'rifatli mard insonlar kerak bizga.

*Ko'ngilda pok niyat bo'lsa nur bulog'i,
Jaholatga qarshi chiqqan har bir oni,
Butun dunyo qalqonlari, qosh-qarog'i,
Ma'rifatga to'la zotlar kerak bizga
(Muhammad Yusuf)*

Ma'rifat, kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim – tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar Majmuasini ham bildiradi. Ma'rifat ilmu-urfon ma'nosida ham ishlatiladi.

Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bog'liq. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch- qudrat ato etadi. U yoshlarni jaholatdan qutqaradi, yomon ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Ma'rifatli yoshlardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi.

Ma'rifat bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif uni yoyish vositadir. Ma'rifatni hayotga singdirish tizimi orqali amalga oshiriladi. Ma'naviyat tushunchasi keng tushuncha bo'lib ma'rifat, madaniyat tushunchalarining majmuasidir. Ma'rifat tushunchasi arabcha “arafa” bilish, bilim, ma'lumot tanish ma'nolarini bildiradi. Ma'rifatli degani muayyan sohada ma'lumoti bor degani bo'lib, insonparvarlik ma'naviyati zaminidagina o'z mohiyatiga ega bo'ladi.

Yoshlarning bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim –tarbiya ham ma'rifat deb qaraladi. Ma'rifat atamasi tabiat, jamiyat va inson haqidagi turli – tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini anglatadi.

Yoshlarni ma'rifatli va ularni manaviy barkamol – avlod qilib tarbiyalashda ilohiyatning ta'siri beqiyos. Buyuk ajdodlarimizdan Imom Buxoriy, Xakim Termiziy, Axmad Yassaviy, Baxoudin Naqshband, Moturudiy kabi allomalar o'zlarining beqiyos bilimlari bilan umum-insoniy madaniyatlarning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib kelgan. Xakim Termiziy “Kitob-al ilm” nomli risolasida ma'rifatni nur, yorug'likka qiyoslagan. Ma'daniyat insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisidir. Har qanday jamiyatning o'ziga xos ma'naviy ehtiyojlari mavjud. Ular orasida bilimga bo'lgan ehtiyoj yetakchi o'rini egallaydi. Bilim yoshlarni tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilingan to'g'ri ma'lumotlarni ko'nikmasi insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni bajarish va boshqarish jarayonlarining zamonaviylashuvidir.

Xulosa: Muomala odobi bu inson ko'rki bo'lib, insonga bo'lgan samimiy mehr- muruvvat mezonidir.

Bu mezonga izchil amal qilish odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Yoshlar o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan muomala inson yuragini ko'zguda aks etgandek namoyon etadi. Yoshlarning so'zidan, muomalasidan uning qanday odam ekanligini bilib olish qiyin emas. Yoshlar kamolotida, hayot rivojida, ish yuritishida, odamlar sihat-salamatligini muhofaza qilishda muomala asosiy omildir. Yoshlar fikrini shoshmasdan, o'ylab samimiyat bilan aytishni o'rganishlari, jahlni yutib, aqlni ishlatadigan, yoki bir gapdan qoladigan, o'rni kelganda haq gapni aytishdan cho'chimaydigan bo'lishlari kerak.

Bobomiz Abu Ali ibn Sino : “Inson har doim navqiron, bardam bo'lishi uchun boshqa odamlarni ranjitmasligi, dilini vayron qilmasligi hamda o'zi go'zal muomalali bo'lmog'i lozim” degandirlar. Zero, yaxshi muomala baxt –u saodatning kalitidir.

References:

1. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asari.
2. Ma’nolar sharhiga bag’ishlangan kitob “Ma’nolar Maxzani” kitobi.
3. “Estetika asoslari” kitobi.
4. <https://fas.usda.gov>
5. <https://www.globalhungerindex.org/ranking>
6. <https://www.statista.com>

